

ТЕХНОЛОГИК JIHOZLAR TABELI, ANDOZAVIY LOYIHALAR VA INTERNET SAHIFALARI ASOSIDA TEXNOLOGIK JIHOZLAR TURLARINI TANLASH

Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich
JizPI, "Transport vositalari muhandisligi"
kafedrasini mudiri, dotsent
Namozova Barno Behzod qizi
JizPI, "Transport" fakulteti
121-21 A va Tyo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtotransport korxonalarining texnologik jihozlar bilan harakatdagi tarkibidan samarali foydalanish darajasi, texnologik jihozlar tabeli, andozaviy loyihalar va internet sahifalari asosida texnologik jihozlar turlarini tanlash haqida haqida so'z boradi. Shuningdek, avtotransport korxonalarini yangi avtomobillarning parametrlariga moslashtirish, takomillashtirish, zamonaviy texnologik jarayonlarga qo'llashda ishlab chiqarish texnika bazasini rivojlantirishning turli usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekspluatatsiya, ta'mirlash, avtotransport korxonasi, texnologik jihozlar tabeli, andozaviy loyihalar, texnologik jihozlash, texnik xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish, texnologik jarayon, mexanizatsiyalashganlik darajasi.

Аннотация: В данной статье говорится об уровне эффективности использования технологического оборудования автотранспортных предприятий, выборе видов технологического оборудования на основании таблицы технологического оборудования, типовых проектов и сайтов. Кроме того, проанализированы различные методы развития базы производственного оборудования для адаптации автотранспортных предприятий к параметрам новых автомобилей, их совершенствования, применения к современным технологическим процессам.

Ключевые слова: эксплуатация, ремонт, автотранспортное предприятие, технологическое оборудование, типовые проекты, технологическое оборудование, техническое обслуживание, производство, технологический процесс, уровень механизации.

Annotation: This article talks about the level of efficient use of technological equipment in motion by motor transport enterprises, the selection of types of technological equipment based on the technological equipment table, model projects and websites. In addition, various methods of developing the production equipment base for the adaptation of motor transport enterprises to the parameters of new cars, improvement, and application to modern technological processes were analyzed.

Key words: operation, repair, motor transport enterprise, technical equipment, model projects, technological equipment, technical service, production, technological process, level of mechanization.

angi ATKni loyihalashda yoki mavjud avtotransport korxonasini rekonstruksiya qilishda texnologik jihozlarning turlari va modellari texnologik jihozlar tabeli, andozaviy loyihalar ilmiy-texnik adabiyotlar va internet sahifalarida keltirilgan zamonaviy jihozlar asosida tanlanadi, ularning miqdori aniqlanadi va ishlab chiqarish maydonlariga joylashtirish amalga oshiriladi.

TXX va JT mintaqalari uchun texnologik jihozlarning ro'yhati va soni ATKlarning talabi yoki texnologik jihozlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va dilerlik firmalarning tavsiyasi asosida ishlab chiqarish texnika bazasining o'lchami, avtomobil markasi hamda TXX va JT ishlarining turi asosida tanlab olinadi. Jihozlarning imkoniyatlarini tahlil qilish uning texnik xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bir xil turdagi ikkita modelni (texnologik qo'llanilishi nuqtai-nazaridan) qiyosiy baholash bir qator ko'rsatkichlar yordamida sifat va miqdoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Shunga o'xshash texnologik uskunalarning ikki yoki undan ortiq modellarini sifat jihatdan taqqoslashda ularning texnologik imkoniyatlarini, muayyan ish sharoitlarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy sifat xususiyatlarini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Texnologik jihozlarni taqqoslashda va tanlashda quyidagi texnik, iqtisodiy, ishlab chiqarish va ekspluatatsiyaviy omillar hisobga olinadi:

- avtotransport korxonasining quvvati;
- avtotransport korxonasining ixtisoslashganligi (yuk, yengil, avtobus, maxsus, aralash);
- ishchi postlar va ustaxonalar soni (amaldagi, kelajakdagi yoki hisobiy);
- avtomobillarning konstruksiyasi, (rusumi, turi, tuzilishi, gabarit o'lchami);
- ustaxonalar va postlarning o'lchami va joylashishi;
- energiya, suv, kanalizatsiya va samollatish tizimi;
- avtotransport korxonasidagi TXX va Tni tashkil etish tizimi;
- TXX va T ishlarining texnologiyasi va tarkibi;
- TXX va T postlarining ixtisoslashganligi;
- TXX va T postlarini jihozlash tamoyili;
- jihozning texnika xavfsizligi;
- jihozning tavsifi, qo'llash doirasi, narhi, ishonchliligi, o'lchamlari, ishlatish qulayligi.

Avtotransport korxonalarining **texnologik jihozlar tabeli** avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlar (BMW, Mercedes Benz, VAZ kabi), texnologik jihozlar ishlab chiqaruvchi firmalar yoki dilerlar tomonidan tavsiya etiladi, tabelda avtotransport korxonasining quvvati va avtomobil turiga bo'g'liq holda jihozlarning nomi va tavsiya etilayotgan soni ko'rsatilgan bo'ladi.

Quyidagi 1-jadvalda texnologik jihozlar tabelining namunasi keltirib o'tilgan.

1-jadval

Avtotransport korxonalarining innovatsion texnologik jihozlari tabelining namunasi

Jihozning nomi, modeli	Ishlab chiqaruvchi (zavod, firma)	Texnik tavsifi (gabarit o'lchami, mm; og'irligi, kg)	Bitta jihozning narhi	Qo'llanish sohasi (KXK, 1-TXK, 2-TXK, JT)	Avtoservis quvati					
					yengil		yuk		avtobus	
					Kichik, o'rta	Katta, yirik	Kichik, o'rta	Katta, yirik	Kichik, o'rta	Katta, yirik
avtomobillar va detallarini yuvish jihozlari										
Tunneli yuvish qurilmasi <i>T'WASH 30</i>	Ispaniya ISTOBA L	30000x 2300x 2500 mm		KXK	1	2				
.....										
moylash va suyuqlik quyish jihozlari										
sovutish suyuqligini almashtirish qurilmasi	SIVIK KC-121	640x 440x 1110 mm		1-TXK, 2-TXK, JT	1	1				
.....										
ko'tarish-qarash va ko'tarish-tashish jihozlari										
ПГА-6500/4 to'rt ustunli elektrogidravlik ko'tarigich	SIVIK (Rossiya)	3730x2254 x6480 mm.		1-TXK, 2-TXK, JT	4	10				
.....										
Nazorat-diagnostika jihozlari										
E250M-02 elektr jihozlarini diagnostikalash stendi	KRON (Rossiya)	1130x840x 1470 mm;		D-1, D-2	1					
.....										
Qismlarga ajratish va yig'ish jihozlari										
"R-1250" Dvigatellarni qismlarga ajratish-	GARO (Rossiya)	940x940x1 430 mm		JT	1					

Jihozning nomi, modeli	Ishlab chiqaruvchi (zavod, firma)	Texnik tavsifi (gabarit o'lchami, mm; og'irligi, kg)	Bitta jihozning narhi	Qo'llanish sohasi (KXK, 1-TXK, 2-TXK, JT)	Avtoservis quvati					
					yengil		yuk		avtobus	
					Kichik, o'rta	Katta, yirik	Kichik, o'rta	Katta, yirik	Kichik, o'rta	Katta, yirik
yig'ish universal stendi										
.....										
Ta'mirlash va qayta tiklash ishlari jihozla										
Siver C-110 avtomobil kuzovlarini to'g'rilash stendi	GARO (Rossiya)	2100x2500x6600 mm		JT	1					
.....										
Shinalarni ajratish-yig'ish va ta'mirlash jihozlari										
“Премьер” g'ildirak disklarini to'g'rilashga mo'ljallangan universal stend	GARO (Rossiya)	970x900x1300 mm		TXK JT	1					
.....										

Texnologik jihozlar tabeli asosida texnologik jihozlar va garaj jihozlarini ishlab chiqarish, eltib berish, o'rnatish, jihozlarga kafolatli xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlarini taklif qiluvchi zavodlar, birlashmalar, firmalar va dilerlik firmalarining internet sahifalari rasmiy saytlari faoliyat olib boradi. Ushbu saytlar texnologik jihozning umumiy xarakteristikasi (prinsipial sxemasi, rejasi, gabarit o'lchamlari, og'irligi, quvvati, qo'llanilish sohasi, narhi va h.k.) to'g'risida batavsil ma'lumot berilgan bo'ladi. Quyida bir qancha kompaniyalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Rossiya Federatsiyasining Vladimir shahrida joylashgan barcha turdagi avtomobillarga mo'ljallangan zamonaviy avtoservis jihozlarini ishlab chiqaruvchi “4AKB-IOI” kompaniyasi, rasmiy sayti - <http://www.ural-k-s.ru/>.

Rossiya Federatsiyasining barcha turdagi avtomobillarga mo'ljallangan zamonaviy avtoservis jihozlarini ishlab chiqaruvchi “SIVIK” kompaniyasi, jahonning 35 dan ortiq davlatlariga xalqaro ISO9001 standartiga ega bo'lgan avtoservis jihozlarini yetkazib beradi, rasmiy sayti - <https://www.sivik.ru/>

Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida joylashgan GARO kompaniyasi, hozirgi vaqtda GARO kompaniyasi “Росавтоспецоборудование” birlashmasi bilan birgalikda barcha turdagi avtomobillarga mo'ljallangan garaj jihozlarini ishlab

chiqarish, tayyorlash va sotish bo'yicha ilg'or korxonalar hisoblanadi, rasmiy sayti: <https://www.garo.cc/katalog>.

"Markaz Trans Savdo" avtoservis va garaj jihozlari savdosi bilan shug'ullanuvchi dilerlik kompaniyasi. Hamkorlari «Hunter», «Launch», «RoadBuck», «Phoenix», «Unite», «Fytech», «Aeroforce», «Besita» avtoservis va garaj jihozlari ishlab chiqaruvchi firmalar, rasmiy sayti: <https://automaster.uz/>.

Toshkent shahrida joylashgan "Tyre Universal Service" avtoservis va garaj jihozlari savdosi bilan shug'ullanuvchi dilerlik xususiy korxonasi. rasmiy sayti: <http://tus.uz/uz/>.

Bundan tashqari **ilmiy-tadqiqot institutlari** tomonidan jihoz tanlash uslubi ishlab chiqilgan. Ushbu uslub quyidagi holatlarda ishlatilishi mumkin:

-yangi avtotransport korxonasi, alohida mintaqalar, ustaxona qurish yoki amaldagi korxonani qayta qurishda;

-mavjud avtotransport korxonasini texnologik jihozlarni bilan to'g'ri jihozlanganini aniqlashda;

-texnologik jihozlarni ustaxona, mintaqalar va postlarga taqsimlashda;

-avtotransport korxonasi ishlab chiqarish texnika bazasining kelajakdagi rivojlanish rejasini ishlab chiqishda.